

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№3

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, mart.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNINI	24
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL	30
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELITIRIB CHIQUARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI	37
Toxtabayev Oybek Odilovich	
QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV	42
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTON GLOBAL-IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNINI	48
Kuvatova Oliya Sheraliyevna	
QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	54
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI	61
Yangiboyev F.B.	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ERTA ANIQLASH VA BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN RISK-INDEKS MODELINI	68
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich, Rajabov Shoxrux Suvon o'g'li	
RUX VA QO'RG'O'SHINNI SELEKTIV AJRATIB OLISHNI KOMBINATSIYALASH TEXNOLOGIYASI VA NAZARIYASI.....	74
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Haqberdiyev Dilshod Qodir o'g'li	
UY-JOY QURILISHI HAJMINI UZOQ MUDDATLI PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	81
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQLIM VA TABIIY OFATLAR NATIJASIDA YETKAZILDAN TALOFATLARNI DAVLAT TOMONIDAN KOMPENSATSIYA QILISH MEKANIZMI.....	85
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MEKANIZMLARI.....	90
Abdug'aniyev Uchqun Habibulla o'g'li	
O'ZBEKISTON QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA TENDENSIYALARI	96
Musaeva Aynura Abayxolievna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL INFRASTRUCTURE TRANSFORMATION IN THE CONTEMPORARY ENVIRONMENT.....	104
Normurodov Khusan Eshmakhmatovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI BAHOLASH YO'LLARI	108
Begamov S.X.	
DEBITORLIK QARZLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI	112
Normatova Gulmira Xayrullaevna	



SOLIQLARNI PROGNOZLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	118
Ergashov Jamshid Ashurovich	
MEHNAT XARAJATLARI HISOB: NAZARIY ASOSLAR, USULLAR VA BOSHQARUVDAGI AHAMIYATI.....	126
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
KORPORATIV XIZMATLARNING BANK FOYDASIGA TA'SIRI: KOMISSION VA FOIZLI DAROMADLAR TAHLILI	131
Qurbonov Abror Abdullayevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILY MEXANIZMLARI.....	136
Djamalov G'ofir Oribjanovich	
OCHIQLIK INDEKSI VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SAMARADORLIGI: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING INSTITUTSIONAL TAHLILI	144
Diilshod Pulatov, Uchqun Abdug'aniyev	
DUNYO SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIVAVIY HOLATI VA NATIJALARI TAHLILI.....	153
Alimov Baxodir Batirovich	
QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	160
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
QURILISH TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI	164
Muxibova Guli Yarkinovna, Sharifxodjayeva Odina Ulug'bek qizi	
AXBOROT-RESURS MARKAZLARINING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	168
Pirmedova Xayitgul Muxammedovna	
IJTIMOYIY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI: XALQARO TAJRIBA VA INSTITUSIONAL YONDASHUVLAR.....	173
Bafoyev Farrux Jo'raqulovich	
KORXONALARDA AI-DRIVEN "DECISION SUPPORT SYSTEMS" (DSS)NI JORIY ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Mardanova Ra'no	
STRENGTHENING THE FINANCING OF FAMILY-OWNED ENTERPRISES IN UZBEKISTAN THROUGH BANK CREDIT	186
Baymuratova Zina Aqilbekovna, Ibadullaeva Asal Ulugbek qizi	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH	192
Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich	
ATTRACTING INVESTMENTS FROM FINANCIAL MARKETS AND FACTORS INFLUENCING THE INCREASE OF THEIR ATTRACTIVENESS	196
Kholov Sherali Akhrorboyevich	
MARKAZIY OSIYODA TRANSCHEGARAVIY SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA ADOLATLI TAQSIMLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	200
Matkarimov Mansur	
XALQARO XIZMATLAR SAVDOSIDA TIBBIY TURIZMNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	206
Farxodova Shohnoz Umidbek qizi	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING KO'P OMILLI INDIKATORLARI TIZIMI	213
Ibroximov Iloxomjon Shavkatjon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINI IQTISODIY FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	219
Tillayeva Barno Ramiztdinovna	
NOTIJORAT TASHKILOTLAR FAOLIYATIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVI VA AUDITORLIK HISOBOTLARINING O'ZIGA XOSLIGI.....	224
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Ubaydullayev Toxirjon Abdullajanovich	



ЦИФРОВЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ РЕИНТЕГРАЦИИ ВОЗВРАЩАЮЩИХСЯ ТРУДОВЫХ МИГРАНТОВ: МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРАКТИКА И ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ КЫРГЫЗСТАНА.....	230
<i>Амантурова Дилбара Кыдыкбековна</i>	
РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЛЕКСИКИ В ЯЗЫКОВОЙ ПОДГОТОВКЕ ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ.....	237
<i>Асрарова М.У.</i>	
О СКОРИНГОВЫХ МЕТОДАХ ЭКСПРЕСС-АНАЛИЗА ДОХОДНОСТИ АКЦИЙ УЗБЕКСКИХ ЭМИТЕНТОВ.....	242
<i>Ирмухамедова Муслима Дилшодовна</i>	
UY-JOY QURILISHIDA ESKROU MEKANIZMLARINI JORIY ETISH ORQALI INVESTITSION XAVFSIZLIK VA MOLIVAVIY SHAFFOFLIKNI TA'MINLASH	247
<i>Karimov Inomjon Ortikbaevich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MASALALARI	254
<i>Kamoliddinov Ilhomjon Muxammadjonovich, Kobilov Murod Vakkosovich</i>	
TIJORAT BANKLARI RAQOBATBARDOSHLIGINING MOLIVAVIY BARQARORLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	259
<i>Axmedov Toxirjon Xasanjon o'g'li</i>	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ENERGETIKA VA ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATINING ROLI	264
<i>Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li</i>	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS-NAZORAT TIZIMI ORQALI RISKLARNI SAMARALI BOSHQARISH	270
<i>Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich</i>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ БАНКОВСКИМИ РИСКАМИ И СТРАХОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ ОПЕРАЦИЙ В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКИНГА В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ.....	275
<i>Бахтиёров Худайберган Хамдам угли</i>	
DOIMIY BO'LMAGAN KUCH TA'SIRIDA DEFORMATSIYALANUVCHAN STANDART CHIZIQLI QATTIQ MODEL ISHLAB CHIQRISH VA SONLI TAHLIL QILISH.....	282
<i>Ahmadov Ilhom Aktam o'g'li, Isomova Sabohat Islom qizi</i>	
YOUTH ENTREPRENEURSHIP AS A FACTOR OF STRUCTURAL ECONOMIC TRANSFORMATION IN UZBEKISTAN.....	290
<i>Isakjanova Saboxat Muhamedovna</i>	
МОДЕЛИРОВАНИЕ САМОВОЗБУЖДЕНИЕ НЕЯВНОПОЛЮСНОГО СИНХРОННОГО ГЕНЕРАТОРА ПРОДОЛЬНО-ПОПЕРЕЧНОГО ВОЗБУЖДЕНИЯ	298
<i>Пирматов Нурали Бердиёрович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Бердиёров Улугбек Нурали угли, Бердиёров Улмасбек Нурали угли</i>	
YURTIMIZDAGI EKOLOGIK SOF YOG'OCH MATERIALLARIDAN TAYYORLANGAN ORAYOMA KONSTRUKSIYALARINING CHO'ZILISHGA QARSHILIGI	305
<i>Yunusaliyev Elmurod Muhammadyaqubovich, Toshpulatov Ilhomjon Baxtiyorovich</i>	
AYDAR-ARNASOY KO'LLAR TIZIMINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA ZAMONAVIY EKOLOGIK MUAMMOLARI	311
<i>Aminov Hamza Husanovich, Madrimov Rajabboy Masharipovich, Xamdullayeva Aziza Baxtiyor qizi</i>	
EXPLAINABLE AI YORDAMIDA SOC UCHUN TUSHUNTIRILADIGAN KIBERXAVF ANIQLASH TIZIMINI ISHLAB CHIQRISH	318
<i>N.N. Jo'rayev, A.Sh. Juraboyev</i>	
QUYOSH FOTOELEKTRIK MODULLARINI SUV YORDAMIDA TOZALASH VA SOVITISH USULLARI TAHLILI	324
<i>Ibragimov Umidjon Hikmatullayevich, Qodirov Jobir Ro'zimatovich, Izomov Shahzod Niyoz o'g'li, To'ymurodov Quvonchbek Sherzod o'g'li</i>	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING QURILISH SOHASIGA INTEGRATSIYASI: ILG'OR XALQARO TAJRIBA	332
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
ФАКТОРЫ НАЛОГОВОЙ КУЛЬТУРЫ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОБИРАЕМОСТЬ НАЛОГОВ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ	339
Хакимова Ситора Ильёсжон кизи, Муталова Дилором Махамаджановна	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ЭКСПЕРТНОГО ПРОГНОЗИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ	345
Л.А. Кадырова, Б. Н. Эгамов	
О'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUG'URTA BOZORINING TUZILISHI TAHLILI	350
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
MINTAQALARDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH MASALALARI	358
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
KONTEYNERLI TASHUVLARNING JORIY HOLATI, MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	366
Samatov G'affor Alloqulovich, Xolmatov Bekzod Nurmatovich, Toxirov Maxmudjon Murodjon o'g'li, Absattarov Isomiddin Xotam o'g'li	
KICHIK BIZNES KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH OMILLARI BO'YICHA NOMUVOFIQLIKNI ANIQLASH VA BARTARAF ETISH MEXANIZMI	381
Kaypnazarova Gulshad Xojamuratovna	



KICHIK BIZNES KORXONALARIDA ISHLAB CHIQUARISH OMILLARI BO‘YICHA NOMUVOFIQLIKNI ANIQLASH VA BARTARAF ETISH MEXANIZMI

Kaypnazarova Gulshad Xojamuratovna

Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti

g.kaypnazarova2025@mail.ru

0000-0001-8250-3450

Annotatsiya. Maqolada kichik biznes korxonalarida ishlab chiqarish omillari mutanosibligini ta'minlash va iqtisodiy barqarorlikni oshirishda ma'muriy mexanizmlarning ahamiyati tadqiq etilgan. Qoraqalpog'iston korxonalarida misolida o'tkazilgan tahlillar resurslar nomutanosibligi samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Shu asosda monitoring, resurslar almashinuvi va institusional qo'llab-quvvatlashga asoslangan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm taklif etildi. Ushbu yondashuv kichik biznes faoliyati barqarorligini kuchaytiradi.

Kalit so'zlar: kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, ishlab chiqarish omillari, optimallashtirish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, ishlab chiqarish hajmi.

Abstract. The article examines the importance of administrative mechanisms in ensuring the balance of production factors and increasing economic stability in small business enterprises. The analysis of Karakalpakstan enterprises showed that the imbalance of resources has a negative effect on efficiency. On this basis, an organizational-economic mechanism based on monitoring, resource exchange and institutional support was proposed. This approach strengthens the stability of small business activity.

Keywords: small business and private entrepreneurship, production factors, optimization, organizational-economic mechanism, production volume.

Аннотация. В статье рассматривается важность административных механизмов обеспечения соразмерности факторов производства в малых предприятиях и повышения экономической стабильности. Анализ, проведенный на примере предприятий Каракалпакстана, показал, что дисбаланс ресурсов негативно влияет на эффективность. На этой основе предложен организационно-экономический механизм, основанный на мониторинге, обмене ресурсами и институциональной поддержке. Такой подход повышает устойчивость деятельности малых предприятий.

Ключевые слова: малый бизнес и частное предпринимательство, факторы производства, оптимизация, организационно-экономический механизм, объем производства.

KIRISH

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda qulay muhit yaratish bilan bog'liq muammolarni hal etish, korxonalarining barqarorligini ta'minlash hamda iqtisodiy samaradorligini oshirish tadbirlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Korxonalarining barqarorligini ta'minlash hamda iqtisodiy samaradorligini kichik biznes korxonalaridagi iqtisodiy resurs yoki jarayonlarning ishlab chiqarish omili maqomiga muvofiq kelishini baholashning asosiy mezonlarini belgilash, hududdagi tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi idoralar tomonidan kichik biznes korxonalarida o'rtasida resurslarning o'zaro harakatini muvofiqlashtiruvchi guruhlarni shakllantirish orqali ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi nomutanosiblik holatlarining oldini olish va faoliyatga salbiy ta'sir xavfini kamaytirish, korxonalaridagi ishlab chiqarish omillari mutanosibligi darajasi, ulardan foydalanish samaradorligining muntazam monitoringi va diagnostikasi, korxonaning joriy va istiqboldagi iqtisodiy barqarorligini ta'minlash bo'yicha maslahat berish xizmatlarini yo'lga qo'yish, mamlakatdagi kichik biznes korxonalaridagi ishlab chiqarish omillarining soha yalpi ishlab chiqarish hajmiga ta'sirining prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes sub'yektlari faoliyatini samarali tashkil etish, barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish asosiy jihatlarining tadqiqi xorijlik olimlardan V.Gorfinkel, I.Zagoruyko [1], G.Imayeva [2], V.Karpushkin, Ye.Kozьma [4], A.Kopьsova [3], I.Krotov [5] T.Turenko, I.Ustich, V.Shvandar, G.Sherova, A.Shilkina, A.Soy kabilar tomonidan amalga oshirilgan.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, jumladan, ishlab chiqarish omillaridan oqilona foydalanish hamda iqtisodiy samaradorligini oshirish muammolari Yo.Abdullayev [6], U.G'afurov, G.Abdurahmonova [6], H.Abulqosimov [7], O.Aripov [8], I.Bakiyeva, M.Boltabayev, M.Ibragimova [9], F.Karimov, N.Murodova [10], Q.Muftaydinov [11], S.Salayev [12], B.G'oyibnazarov va boshqa qator olimlarning ilmiy tadqiqotlarida tadqiq etilgan. Amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan, aynan kichik biznes korxonalarida ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi mutanosiblikning ilmiy-uslubiy va amaliy masalalari tizimli holda tadqiq etilmagan.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomoidan ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, solishtirma tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Qoraqalpog'istondagi kichik biznes korxonalaridagi ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi mutanosiblik bilan bog'liq holat hamda uni ta'minlash borasidagi muammolarni tadqiq etishda mazkur tadqiqot doirasida qator korxonalar ishtirokida ijtimoiy so'rovnoma hamda monografik tadqiqotlar o'tkazildi.

Bir qator korxonalarda ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi mutanosiblik bilan bog'liq muammolarning mavjudligi to'g'risidagi so'rovnoma natijalarini quyidagi diagramma orqali ifodalash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Qoraqalpog'iston kichik biznes korxonalarida ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi mutanosiblik bilan bog'liq muammolarning mavjudligi, so'ralganlarga nisbatan foizda

Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinadiki, o'zlari faoliyat yuritayotgan korxonada ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi mutanosiblik bilan bog'liq muammolar mavjudligini so'ralganlarning "Muratbek mebel" MCHJda 90%, "Kardar" MCHJda 68%, "Jipek joli" MCHJda 43%, "Panamilk" MCHJda 83%, "Iskander - Jansaga" MCHJda 49% qismi tasdiqlagan. Mazkur javob salmoqlaridan quyidagi xulosa va mulohazalarni ilgari surish mumkin:

1) korxonada ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi mutanosiblik bilan bog'liq muammolar mavjudligining "Muratbek mebel" MCHJ (90%) va "Panamilk" MCHJ (83%) yuqori darajada qayd etilishining asosiy sababi – mazkur korxonalarining ishlab chiqarish sohasiga ixtisoslashganligidir. Chunki, ishlab chiqarish sohasida asbob-uskunalar, xomashyo va materiallar, bino va inshootlarga bo'lgan ehtiyoj yuqori darajada namoyon bo'lib, u vaqti-vaqti bilan turli omillar ta'sirida o'zgarib ham turadi;


2) mazkur ko'rsatkichning "Jipek joli" MCHJda past bo'lishi (43%) mazkur korxonaning mehmonxona xizmati ko'rsatishga ixtisoslashganligi bilan izohlanadi;

3) mazkur ko'rsatkichning "Kardar" ko'p tarmoqli MCHJda nisbatan mo'tadil bo'lishi (68%) mazkur korxonaning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, savdo faoliyatlariga ixtisoslashganligi bilan izohlanadi. Agar ushbu korxonada ishlab chiqarish omillari o'rtasida ma'lum darajada nomutanosiblik paydo bo'lsa, ishlab chiqarish omillarini faoliyatning turli yo'nalishlariga qayta taqsimlash (joylashtirish) orqali bartaraf etish imkoni mavjud bo'ladi.

Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinadiki, kichik biznes korxonalarida ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi mutanosiblik bilan bog'liq muammolarni hal etishda mahalliy idoralar tomonidan qo'llab-quvvatlashning zarur deb hisoblovchilarning salmog'i "Muratbek mebel" MCHJda 85%, "Kardar" MCHJda 45%, "Jipek joli" MCHJda




30%, “Panamilk” MCHJda 79%, “Iskander - Jansaga” MCHJda 51%ni tashkil etgan. Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, so‘ralganlarning asosiy qismi mazkur muammoning ahamiyatini his etgan holda, uni bartaraf etishda mahalliy davlat va jamoatchilik idoralarining ishtirokini yuqori baholaydi (2-rasm).



2-rasm. Qoraqalpog‘iston kichik biznes korxonalarida ishlab chiqarish omillari o‘rtasidagi mutanosiblik bilan bog‘liq muammolarni hal etishda mahalliy idoralar tomonidan qo‘llab-quvvatlashning zarurligi, so‘ralgarga nisbatan foizda

Bundan ko‘rinadiki, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, jumladan ularning iqtisodiy samaradorligini ta‘minlashga ta‘sir ko‘rsatuvchi shart-sharoitlarni vujudga keltirishda mahalliy davlat va jamoatchilik idoralarining roli ahamiyatli hisoblanadi. Jumladan, mahalliy hokimiyatlar, Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining hududiy vakolatli ofislari, Savdo-sanoat palatasining hududiy boshqarmalari bu borada asosiy mas‘ul idoralardan hisoblanadi.

Fikrimizcha, ushbu idoralar oldida turgan muhim vazifalardan biri – kichik biznes korxonalarining samarali faoliyatini ta‘minlash ekan, demak, ular ixtiyoridagi ishlab chiqarish omillarining ham yuqori samaradorlik darajasini ta‘minlovchi tarkibini shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Buning uchun mazkur idoralar tomonidan o‘ziga xos mexanizmning ishlab chiqilishi va yo‘lga qo‘yilishi maqsadga muvofiq (3-rasm).



3-rasm. Kichik biznes korxonalarida ishlab chiqarish omillari bo‘yicha nomuvofiqlikni aniqlash va bartaraf etish mexanizmi

Mazkur mexanizmning amal qilish tartibini quyidagi izchillik orqali bayon etish mumkin.

1. Hududdagi tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi idoralar, jumladan, mahalliy hokimiyat idoralari, Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining hududiy vakolatli ofislari, Savdo-sanoat palatasining hududiy boshqarmalari tomonidan birgalikda ishlab chiqarish omillarining turlari bo'yicha kichik biznes korxonalaridagi o'zaro ichki harakatini ta'minlovchi guruhlar shakllantiriladi.

2. Mazkur guruhlar, masalan, xomashyo, materiallar va butlovchi qismlar bo'yicha tuzilganda, o'z ishlab chiqarish faoliyatida bir xil yoki nisbatan yaqin bo'lgan xomashyo va materiallardan foydalanib kelayotgan kichik biznes korxonalarining o'z ixtiyorlariga ko'ra elektron shakldagi platforma (ro'yxat) tarzida shakllantiriladi. Bundan maqsad, biron-bir guruh a'zosida muayyan xomashyo yoki material turi bo'yicha yetishmovchilik yoki ehtiyojdan ortiqchalik holati vujudga kelgan holda, u guruhning boshqa a'zolariga bu haqida xabar beradi.

3. Mazkur xabar, o'z navbatida hududdagi tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi idoralar tomonidan tashkil etilgan birlashgan monitoring markaziga ham kelib tushadi. Agar guruhdagi korxonalar mazkur xomashyo yetishmovchiligi yoki ortiqchaligini o'zaro manfaatli almashinuv orqali hal etsalar, monitoring markazi tomonidan hech qanday xatti-harakat talab etilmaydi.

4. Bunda jarayon amalga oshmagan va guruh a'zosining talabi qondirilmagan holatda, monitoring markazi o'z ma'lumotlari asosida guruh a'zolari o'rtasiga mazkur muammoni hal etish bo'yicha o'zining taklif va tavsiyalarini taqdim etadi. Ushbu taklif va tavsiyalar bu boradagi mutaxassislarining mavjud ma'lumotlar, axborotlar bazasi, maxsus hisob-kitoblar, prognozlar va boshqa puxta ishlab chiqilgan ssenariylariga asoslangan bo'ladi.

5. Kichik biznes korxonalarining o'zaro ichki harakatini ta'minlovchi guruhlariga birlashishini rag'batlantiruvchi dastak – bu muammoning hal etilishida tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi idoralar tomonidan taqdim etiluvchi amaliy yordam hisoblanadi. Buning uchun mazkur idoralar tomonidan shakllantirilgan ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlashga mo'ljallangan resurslar zaxirasidan foydalaniladi. Ya'ni, biron-bir korxonada xomashyo yetishmasligi yoki ortiqchaligi vujudga kelgan taqdirda, ushbu nomuvofiqlikni guruhdagi boshqa korxonalar ishtirokida hal etish imkoni topilmasa, u holda birlashgan monitoring markazining qaroriga ko'ra ushbu korxonaga zarur miqdordagi tegishli xomashyo olib berilishi, yoki aksincha, korxonadagi ortiqcha xomashyoni zaxira uchun sotib olinishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes korxonalarida ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish darajasini oshirishda bevosita ishlab chiqarish jarayonining o'ziga e'tibor qaratilib, uning dastlabki, tayyorgarlik bosqichi nazardan chetda qoladi. Shunga ko'ra, ishda biznes-g'oya va biznes-rejani tayyorlash bosqichi tahlil qilinib, aksariyat holatlarda biznes-g'oyaning muvaffaqiyati uni ishlab chiqish va amalga oshirish muddati bilan to'g'ri bog'liqlikda bo'lishi aniqlandi.

Taklif etilgan mexanizmning amalga oshish mazmunidan ko'rinadiki, mazkur chora-tadbirlar kichik biznes korxonalarida ishlab chiqarish omillarining yetishmasligi yoki ortiqcha qismining muomaladan tashqarida turib qolmasligi, ya'ni nomutanosiblik xavfini pasaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, ushbu korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligiga ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Fikrimizcha, korxonada ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi mutanosiblik holati va shundan kelib chiqqan holda, ulardan foydalanish samaradorligini muntazam baholab borilishi lozim. Buning eng maqbul yo'llaridan biri – kichik tadbirkorlik sub'yektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotga ega idoralar salohiyatidan foydalanish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Загоруйко И.Ю. исследование развития и оптимизации малого предпринимательство в России в условиях мирового кризиса // Вестник Пермского университета. 2012, №3;
2. Имаева Г. Р. Теоретико-методологические аспекты изучения социальной роли малого и среднего предпринимательства // Мониторинг общественного мнения: экономические и социальные перемены. 2015. №4. С.141-153;
3. Копысова А.С. Экономическое стимулирование развития малого предпринимательства на сырьевых территориях: автореф. дис. ... канд. экон. наук / А.С. Копысова. – Екатеринбург, 2005. - 27 с.;
4. Козьма Е.С. Устойчивое развитие малого предпринимательства как показатель развития ПМР // Инновации в науке: научный журнал. – № 1(77). – Новосибирск., Изд. АНС «СибАК», 2018;
5. Кротов И.И. Развитие малого предпринимательства на основе государственных и муниципальных заказов (на примере регионов Российской Федерации). Дисс...канд.экон.наук. – Пермь. 2015;
6. Абдурахманова Г. К. Кичик бизнесда аҳолини муносиб меҳнат тамойиллари асосида иш билан таъминлашни тақомиллаштириш. Авт....икт.фан.док. –Т.: 2016. 77 б.;
7. Абулқосимов Ҳ.П., Қулматов А.А. Ўзбекистонда кичик бизнес соҳасида оилавий тадбиркорликнинг ўрни ва уни ривожлантириш йўллари. Монография. – Т.: Университет, 2015. – 126 б.;



8. Арипов О.А. Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солиш ва ишбилармонлик муҳитини ривожлантириш. Авт..иқт. фан. док. –Т.: 2020 й. 72 б;
9. Ибрагимова М.М. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятининг таркибий ўзгаришлар асосида самарадорлигини ошириш (Наманган вилояти мисолида). Автореф. ... иқт. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). – Т., 2018.;
10. Муродова Н.Қ. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг назарий асосларини такомиллаштириш. Авт....иқт.фан.док. –Т.: 2016 й. 107 б;
11. Муфтайдинов Қ. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида тадбиркорликни ривожлантириш муаммолари. Дис. ... иқт. фан. д-ри. – Т., 2004.;
12. Салаев С.К. Кичик бизнес ривожланиш тенденцияларини моделлаштириш ва башоратлаш (Ўзбекистон Республикаси мисолида). Дис. ... иқт. фан. д-ри. – Т., 2008.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100